

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**AHMEDOV SAYQAL ABDURAHMONOVICH**

**ABU BARAKOT NASAFIYNING MOVAROUNNAHR HANAFIY FIQHI  
RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI  
("AL-VOFIY" ASARI ASOSIDA)**

**24.00.03 – Fiqh, kalom ilmi. Ilohiyot**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Content of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
historical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
историческим наукам**

**Ahmedov Sayqal Abdurahmonovich**

Abu Barakot Nasafiyning Movarounnahr hanafiy fiqhi rivojiga qo‘shgan  
hissasi (“al-Vofiy” asari asosida)..... 3

**Akhmedov Saykhal Abdurakhmonovich**

Regulatory Bases of Social Protection Issues in Islamic Law (based on the  
work of “al-Wafi”)..... 23

**Ахмедов Сайкал Абдурахмонович**

Вклад Абу Бараката Насафи в развитие ханафитского права (на основе  
труда “ал-Вафи”)..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

List of published works  
Список опубликованных работ..... 46

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**AHMEDOV SAYQAL ABDURAHMONOVICH**

**ABU BARAKOT NASAFIYNING MOVAROUNNAHR HANAFIY FIQHI  
RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI  
("AL-VOFIY" ASARI ASOSIDA)**

**24.00.03 – Fiqh, kalom ilmi. Ilohiyot**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Tar838 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.  
Dissertatsiya referati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ii.au.uz)da hamda "ZiyoNET" Axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz) da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Maxsudov Davronbek Rustamovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Qosimov Mirjalol Abdug'afforovich**  
islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi  
markazi**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_" avgust soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, e-mail: (info@ii.au.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (159-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, e-mail: info@ii.au.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" iyul kuni tarqatildi.  
(2024-yil 02-iyuldagi 07-raqamli reestr bayonnomasi).

**I.I. Bekmirzayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, tarix fanlari doktori, professor

**S.A. Rustamiy**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

**Z.M. Islamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonning hanafiylik mazhabi keng tarqalgan hududlarida islom huquqining amaliy-huquqiy masalalari – “furu al-fiqh ilmi” (فروع الفقه)ga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy asarlar yozilgan. O‘rta asrlarda yuzlab faqihlar bu yo‘nalishda kitoblar yaratganlar. Ular orasida Abu Barakot Nasafiy (vaf. 710/1310 y.) alohida o‘ringa ega bo‘lib, o‘zining “al-Vofiy” (الوافي) asarida hanafiylik “furu al-fiqh”i masalalarini o‘ziga xos tarzda tizimlashtirish orqali XIII asr Movarounnahr fiqh maktabi rivojiga katta hissa qo‘shgan. Shuningdek, mazkur asarga muallif tomonidan yozilgan “al-Kofiy” (الكافي), “Kanz ad-daqiq” (كنز الدقائق) nomli sharhlari islom olamida “Furu al-fiqh” fanidan darslik sifatida qabul qilingan. Shu jihatdan, Abu Barakot Nasafiyning “al-Vofiy” asarida keltirilgan hanafiylikka xos masalalarni yoritib berish dolzarb ahamiyatga ega.

Dunyodagi islomshunoslikka ixtisoslashgan ko‘plab ilmiy-tadqiqot muassasalarida furu al-fiqh (فروع الفقه) ilmi va undagi shar‘iy masalalarni tushunish hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda furu al-fiqh ilmining shakllanish tarixi va bosqichlari, islom huquqining milliy qadriyatlar va odatlar bilan uzviy aloqalarini aniqlash, islom huquqining o‘zgarmas va o‘zgaruvchan masalalarini tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mazkur izlanishlarda shar‘iy manbalarni o‘rganish va ulardan shar‘iy qoidalarni ishlab chiqishning zamonaviy muammolarini hal etishda uning tarixiy ildizlarini yoritish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda diniy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida musulmon huquqiga oid manbalarni, ushbu yurt allomalari ilmiy merosidagi insonparvarlik g‘oyalarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borishga keng imkoniyat yaratilmoqda. Natijada, Marg‘ilon shahrida fiqh maktabiga asos solindi, Abu Xafs Umar Nasafiyning “Tahsil usul al-fiqh” (Usul al-fiqhni o‘rganish), Nizomiddin Shoshiyning “Usul al-fiqh” (Usul qoidalar) kabi mo‘tabar asarlarining o‘zbek tilidagi izohli tarjimalari hamda “Fiqhiy yo‘nalishlar va kitoblar” kabi kitoblar nashr etildi. Movarounnahrlik faqih Abu Barakot Nasafiyning ilmiy asarlarini va ularning mintaqa ilm-fan rivojidagi ahamiyatini ochib berish bugungi kunda sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning davomi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son «Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyundagi 519-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining kutubxona fondini xorijiy adabiyotlar bilan boyitish to‘g‘risida”gi qarorida hamda

sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Abu Barakot Nasafiyning ilmiy merosida ko'tarilgan mavzular Sharq va G'arb olimlarining diqqat markazida bo'lib kelgan.

Arab olimlaridan: Abu Muhammad Shafiq G'irbol (1894-1961), Abdulhay Laknaviy (1848-1887), Mavlono Toshko'pri-zoda, Hoji Xalifa (1609-1657), Shamsuddin Dovudiy (1535-1598), Muhammad Husayn Zahabiy (1915-1977), Amir Abdulaziz, Manno' ibn Xolil Qatton (1925-1999) o'z bibliografik asarlarida Nasafiyning ustoz-shogirdlari shajarasi, xorijsa qilgan ilmiy safarlari, ilmiy va siyosiy faoliyati, hamkasblari va yozgan asarlari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan<sup>1</sup>. Hozirgi davr arab tadqiqotchilaridan Muhammad Nazar Tamim "al-Vofiy" asarini tadqiq qilib, arab tilidagi zamonaviy nashrini amalga oshirgan.

G'arb olimlaridan – K.Brokkelman (1868-1956)<sup>2</sup>, F.Myuller (1823-1900) tarixda o'tgan musulmon huquqshunoslari va ularning asarlari, mazkur asarlarning hozirda mavjud qo'lyozma nusxalari borasida tadqiqotlar olib borgan.<sup>3</sup> Ular o'z izlanishlarida Nasafiyning hayoti va ilmiy merosi to'g'risidagi ma'lumotlarni bayon etgan.

O'zbekistonlik olimlardan D.Maxsudov "Abu Barakot Nasafiyning tafsir ilmida tutgan o'rni" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan hamda "Abu Barakot Nasafiy" nomli risola nashr etgan<sup>4</sup>. U.Uvatov, A.Saidov muallif haqida, N.Nasrullayev, R.Obidov va A.Abdullayev esa, Nasafiyning tafsiriga oid ma'lumotlarni qisman yoritganlar<sup>5</sup>. A.Mansur "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri" nomli nashrida Abu Barakot Nasafiyning "Madorik at-tanzil" tafsiridan asosiy manba sifatida foydalanganiga urg'u bergan<sup>6</sup>. Lekin Abu Barakot

1 انظر: نجم الدين النسفي. كتاب القند في ذكر العلماء سمرقند. - الرياض: 1991؛ عبدالكريم السمعاني. كتاب الأنساب. - ج. الثاني - القاهرة. مكتبة ابن تيمية، 1980؛ ياقوت حموي. معجم البلدان. - بيروت: دار الصدر، 1977؛ شمس الدين الذهبي. سير أعلام النبلاء. - طشقند: مطبعة هلال، 2017؛ عبدالقادر القرشي. الجواهر المزبية في طبقات الحنفية. - ج. الثاني. - القاهرة: 1993م؛ عبد القادر التميمي. طبقات السنية. - الرياض: دار الرفاعي، 1989؛ الحاج خليفة. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون. - ج.الاول - بيروت: دار إحياء التراث العربي، 2008؛ عبد الحي لكنوي. الفوائد البهية في تراجم الحنفية. - مصر: مطبعة السعداء، 1906/1324

2 Karl Brokkelman. Nemis sharqshunosi, somiy va turkiy tillar mutaxassisi. 1900-yilda Beslau, Kenigsberg, Galle, Berlin untlari prof. sharq tarixi, somiyshunoslik bo'yicha ilmiy asarlar yozgan.

3 Qarang: Броккельман К. Тарихул адаб ал-араби // араб тилига таржимон Доктор Абдулхалим Нажжор /. – Ж. VI. – Қоҳира: Дор ал-маъориф, 1989.

4 Махсудов Д. Буюк аждоларимиз. Абул Баракот Насафий ҳаёти ва илмий ижоди. – Т.: ТИУ, 2013.; Мовароуннаҳр Ҳанафий мазҳаби тафсириларининг қиёсий таҳлили (XIII-XV асрлар). – Т.: 2020.

5 Уватов У. Қашқадарё воҳасининг алломалари // Тошкент ислом университети илмий-таҳлилий ахбороти.– Тошкент, 2005. – № 3. – Б. 12-13; Насруллаев Н. Лутфуллох Насафийнинг илмий-маънавий мероси. Тафаккур, 2020; Абдуллаев А. Абул Лайс ас-Самарқандийнинг Мовароуннаҳр тафсиришунослигида тутган ўрни: Таф. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т.: ТИУ, 2007.

6 Qarang: Мансур А. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т.: Ўқитувчи, 2021. – 624 б.

Nasafiyning “al-Vofiy” asari alohida kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Yuqoridagi izlanishlardan farqli ravishda, ushbu dissertatsiyada Abu Barakot Nasafiy “al-Vofiy” asarining hanafiylik huquq tizimi – furu al-fiqhning rivoji va mustahkamlanishidagi o‘rni hamda bugungi kunda din asoslarini to‘g‘ri tushunish va tahlil etishdagi ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan FZ-202002146 – “Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlari asosida buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashning ma’rifiy, tarbiyaviy asoslarini o‘zida jamlagan multimedia dasturi hamda mobil ilovasini yaratish” mavzuidagi ilmiy loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** “al-Vofiy” asari asosida Abu Barakot Nasafiyning hanafiy fiqhi rivojidagi o‘rnini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

“furu’ al-fiqh” ilmini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlardagi yondashuv va metodlarni tahlil qilish;

XIII asrda Movarounnahrda fiqh ilmi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

nasaflik allomalarning islom ilmlari taraqqiyotiga ta’siri va soha rivojidagi o‘rnini ko‘rsatish;

Movarounnahrda mo‘g‘ullar hukmronligi davrida diniy ilmlar rivojida Abu Barakot Nasafiyning tutgan o‘rnini belgilash;

Abu Barakot Nasafiy faoliyati va ilmiy merosi tarkibida fiqh ilmining ahamiyatini yoritib berish;

Nasafiyning fiqhiy asarlaridagi mavzular tasnifi va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish;

“al-Vofiy” asari mavzularining tahlili va manbada fiqhiy qoidalarning qo‘llanish o‘rinlarini asoslab berish;

asarda oila munosabatlarini tartibga solish bilan bog‘liq fiqhiy masalalarning zamonaviy ahamiyatini ko‘rsatib berish;

manbadagi ijtimoiy mavzudagi fiqhiy qarashlarning bugungi diniy-ijtimoiy muammolarni hal etishdagi ahamiyatini ochib berish hamda olingan xulosalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Abu Barakot Nasafiyning “al-Vofiy” asari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Abu Barakot Nasafiy asarlarining hanafiy fiqidagi ahamiyati, olimning fiqhiy qarashlariga ta’sir etgan omillar, “al-Vofiy” asaridagi fiqhiy masalalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada kompleks yondashuv, ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik, analiz va qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

“al-Vofiy” (الوافية) asarining kirish qismida qo‘llanilgan *gapini qaytarib*

*bo'lmaydigan azizlarning iltimoslaridan keyin kitobni yozdim* – بعد إلتماس ممن لا يريد كلامه jumlasidagi *iltimos* soʻzi arab adabiyotlarida uchramay, balki turkiy olimlar tomonidan keng ishlatilishi asosida Abu Barakot Nasafiy kelib chiqishi turkiy xalqlarga mansub olim ekani dalillangan;

Abu Barakot Nasafiy “al-Vofiy” asarida toʻrt mazhabning yetakchi olimlari ismlarining bosh harflarini qoʻllash orqali fiqhiy asarlar tizimiga shartli qisqartmalar qoʻllash uslubini olib kirganligi aniqlangan;

asarning boblari yakunida *turli masalalar* – المسائل المتفرقة qismini keltirib, mavzu doirasida kelajakda paydo boʻlishi mumkin boʻlgan ehtimoliy masalalarning sharʼiy javoblari berilishi bilan manbaning ham tarixiy, ham keyingi davr uchun ahamiyatli ekani asoslab berilgan;

olim, odatda, kitob yozishning ikki xil anʼanasi (hadis kitoblarida har bir mavzu *kitob* – كتاب, fiqhiy asarlarda esa, *bob* – باب deb nomlanishi)dan farqli ravishda, “al-Vofiy” fiqhiy asari boblariga *kitob* – كتاب sarlavhasi ostida nom bergani bilan uning ayrim hadis ilmi manbalariga xos uslublarni fiqhiy kitoblar tizimiga ham olib kirgani ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Nasafiyning “al-Vofiy” asarida fiqh masalalarining yoritilishi, mazhablar oʻrtasidagi qarashlar, hanafiy fiqhi asoschilarining fikrlari jamlanganligi sababli, mazkur asarning “furu al-fiqh”, “usul al-fiqh”, “fatvo” va “voqyeot” janrlariga doir manba ekani isbotlangan;

“al-Vofiy” asarida biror-bir masalada hanafiy olimlar yoki boshqa mazhabning qarashlari mavjud oʻrinlarda shu mazhab yoki olimning ismi bosh harfini keltirib oʻtish bilan kifoyalangani va asarda keltirib oʻtilgan fiqhiy masalalarga bogʻlik boʻlishi mumkin boʻlgan koʻrinishlari ham bayon etib oʻtilgani aniqlangan;

tadqiqotda fiqh ilmining rivojlanishi, Movarounnahrda kirib kelish davrlari, hanafiy fiqhining oʻlkada keng qoʻllanishiga asosiy sababchi boʻlgan olimlar, “al-Vofiy” asarining hanafiy fiqhida tutgan oʻrni va oʻziga xos jihatlari, asarning qoʻlyozma nusxalari haqidagi maʼlumotlar jamlanib, tizimli tahlil etilgan;

Nasafiy ilmiy merosining tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosidagi tadqiqi natijasida olimning 13 ta ilmiy asari mavjudligi, ulardan 5 tasi - fiqh, 4 tasi - kalom, 3 tasi - usulul-fiqh va 1 tasi - tafsirga bagʻishlangani va ularning barchasi bugungi kunga qadar yetib kelgani aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada bugungi kunda islomshunoslik (fiqh/huquq) fanida eʼtirof etilgan yondashuv va usullarning qoʻllangani, mavzuga daxldor boʻlgan birlamchi manbalardan foydalanilgani, ilmiy xulosalarni ilgari surishda “al-Vofiy” asarining Misrdagi Al-Azhar kutubxonasidagi 5351/244, Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasidagi 592, AQSHning Garvard universiteti kitob fondida, AQSHning Michigan universitet kutubxonasidagi 196-raqamli qoʻlyozmalari hamda 2020-yil Muhammad Nazor Tamim tomonidan tayyorlangan asarning arab tilidagi zamonaviy nashri matniga tayanilgani, tadqiqot jarayonida olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.



**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan musulmon huquqiy amaliyoti, xususan, hanafiylik huquqiy ta'limotida qonun ishlab chiqish tizimini tartibga solishning o'ziga xos mezon va xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy-nazariy bilimlarni boyitish va yangi nazariya hamda tadqiqotlarni shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan oliy va o'rta maxsus diniy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Islom tarixi va manbashunosligi", "Islomshunoslik", "Usul al-fiqh", "Islom huquqi asoslari", "Klassik fiqhiy matnlar" kabi fanlar mazmunini yangi nazariy ishlanmalar bilan boyitishda, sohaga oid fakultativ darslar, seminar mashg'ulotlari va maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Abu Barakot Nasafiyning Movarounnahr xanafiy fiqhining rivojiga qo'shgan hissasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

"al-Vofiy" (الوافي) asarining kirish qismida qo'llanilgan *gapini qaytarib bo'lmaydigan azizlarning iltimoslaridan keyin kitobni yozdim* – بعد إلتماس ممن لا يرد كلامه jumlasidagi *iltimos* so'zi arab adabiyotlarida uchramay, balki turkiy olimlar tomonidan keng ishlatilishi asosida Abu Barakot Nasafiy kelib chiqishi turkiy xalqlarga mansub olim ekani dalillangani to'g'risidagi xulosalardan buyurtma asosida tayyorlangan "O'rta asr sharq allomalari ensiklopediyasi" kitobi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024 yil 16-fevraldagi 02/58-son ma'lumotnomasi). Natijada, bu Abu Barakot Nasafiy tarjimayi holiga doir qimmatli ma'lumotlarning ilmiy jamoatchilikka yetib borishiga xizmat qilgan;

Abu Barakot Nasafiy "al-Vofiy" asarida to'rt mazhabning yetakchi olimlari ismlarining bosh harflarini qo'llash orqali fiqhiy asarlar tizimiga shartli qisqartmalar qo'llash uslubini olib kirganligi aniqlangani to'g'risidagi ilmiy xulosalar buyurtma asosida tayyorlangan "Sunani Termiziy sharhi" kitobi mazmuniga singdirilgan (O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining 2024 yil 28 fevraldagi 06-07/38-son ma'lumotnomasi). Natijada, usul al-fiqh va hadis ilmi istilohlari fanlaridagi adabiyotlar va qo'llanmalarda keng uchraydigan tushunchalar va istilohlar mazmuniga oid bilimlar talaba o'quvchilar e'tiboriga yetkazildi;

asarining boblari yakunida *turli masalalar* – المسائل المتفرقة qismini keltirib, mavzu doirasida kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ehtimoliy masalalarning shar'iy javoblari berilishi bilan manbaning ham tarixiy, ham keyingi davr uchun ahamiyatli ekani asoslab berilgani to'g'risidagi ilmiy xulosalar buyurtma asosida tayyorlangan "Islom ensiklopediyasi" kitobi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2024-yil 28-maydagi 04-02/1743-son ma'lumotnomasi). Natijada, keng ommaga movarounnahrlik faqihlar asarlarining o'ziga xos afzalliklari, mazkur davrning ilmiy va ijtimoiy holatlari o'z aksini topgani haqidagi ma'lumot yetkazildi;

olim, odatda, kitob yozishning ikki xil an'anasi (hadis kitoblarida har bir mavzu *kitob* – كتاب, fiqhiy asarlarda esa, *bob* – باب deb nomlanishi)dan farqli

ravishda, “al-Vofiy” nomli fiqhiy asari boblariga *kitob* – كتاب sarlavhasi ostida nom bergani bilan uning ayrim hadis ilmi manbalariga xos uslublarni fiqhiy kitoblar tizimiga ham olib kirgani ochib berilgani haqidagi xulosalardan “Ajdodlarga munosib avlod bo‘laylik” shiori ostida ta’lim muassasalari talaba-o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan madaniy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarida foydalanilgan (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 21-maydagi 01-05/9-son ma’lumotnomasi). Natijada, aholining fiqhiy kitoblardagi masalalar qamrovi, mazmun-mohiyati haqidagi bilimlarining oshishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjuman va konferensiyalarda, shu jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 7 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi hamda vazifalari, o‘rganish obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Movarounnahrdagi furu’ al-fiqh ilmi rivojini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida Movarounnahrga hanafiy mazhabi ikki yo‘l orqali: Abu Hanifaning shogirdi, Imom Muhammad Shayboniydan saboq olgan Abu Hafs Kabir orqali - Buxoroga va Balxda hanafiy olimlardan ta’lim olib, o‘z yurtiga qaytgan Abu Bakr Juzjoniy orqali Samarqandga kirib kelgani bayon etilgan.

Birinchi bobning “*Furu’ al-fiqh ilmini o‘rganishdagi yondashuvlar tahlili*” deb nomlangan birinchi paragrafida movarounnahrlilik faqihlarning islom huquqiga doir asarlarini o‘rganishga doir tadqiqotlar va ulardagi yondashuvlar tahlil etilgan hamda muxtasar holda ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Islom huquqshunosligiga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlar kattagina hajmni tashkil etadi. Shuning uchun bu borada faqat furu’ al-fiqh ilmida yozilgan asarlar tahliliga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, mavzu doirasida: “Fihq”, “Movarounnahr fiqh ilmi rivojida Alouddin Samarqandiyning o‘rni va “Tuhfat al-fuqaho” asarining ahamiyati”, “IX

asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom Buxoriyning mavqei va uning “al-Jomi as-sahih” asaridagi fiqhiy masalalar”, “Majiduddin Ustrushaniyning Movarounnahr fiqh ilmi tarixida tutgan o‘rni”, “Abu Zayd Dabusiyy merosining Movarounnahrda fiqh ilmi rivojida tutgan o‘rni”, “Burhonuddin Mahmud Buxoriyning “Muhit” asari va uning Movarounnahr qoziligida tutgan o‘rni”, “Islom huquqshunosligi va hanafiy mazhabi taraqqiyotida O‘rta Osiyo faqihlarining o‘rni”, “Lutfulloh Nasafiyning “Fiqhi Kaydoniy” asari va unga yozilgan sharh va hoshiyalar tahlili”, “Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari – muhim huquqiy manba”, “X–XIII asrlar Movarounnahr ijtimoiy munosabatlariga oid protsessual va notarial hujjatlar”, “Abu Hafs Kabir Buxoriy va hanafiy fiqhi”. “Alouddin Buxoriy “Hayrat al-fuqaho” asarining islom manbashunosligida tutgan o‘rni” mavzularidagi sohaga oid muhim tadqiqotlar va ularning yo‘nalishlari belgilab olindi.

Furu al-fiqh ilmining alohida fan bo‘lib shakllanishi va har bir davrda o‘ziga xos ko‘rinish kasb etishida o‘sha davr olimlarining hissasi beqiyos bo‘lgan. Shular qatorida Alloma Abu Barakot Nasafiy ham yashagan davr – XIII asrda Movarounnahrda fiqh ilmi rivojiga o‘ziga xos hissa qo‘shgan. Bu jihat olimning mo‘tabar fiqhiy asarlarni “al-Vofiy” asarida jamlaganligida namoyon bo‘ladi. Shu kabi yuqorida keltirilgan sharoit va muhitning notinchligiga qaramasdan, ilmga qilgan xizmati va aqida, fiqh va tafsir borasida mo‘tabar olimlar e‘tirofiga sazovor bo‘lishi bilan bir qatorda, hozirgi kunga qadar “Madorik at-tanzir” va “al-Kanz” asarlarining oliy ta‘lim muassasalarida asosiy qo‘llanma bo‘lib kelayotgani ham alohida ahamiyatga ega. Bunga, bir tomondan, davlat arboblari tomonidan ilm ahliga ko‘rsatilgan yuksak ehtirom, targ‘ibot va tashviqot Movarounnahrda faqihlar sonining ko‘payishi va hanafiy mazhabining rivojlanishiga sabab bo‘lgan. XII asrlarda Xuroson shaharlaridan tortib, Movarounnahr va Turkistonning barcha hududlarida aksariyat aholi hanafiy mazhabida bo‘lgan. Bungi mazhab ulamolari va bitilgan asarlarning naqadar mo‘tadilligi va sermahsulligi sabab sifatida ko‘rsatilgan.

Birinchi bobning “*XIII asr Movarounnahrda fiqh ilmi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari*” deya nomlangan ikkinchi paragrafida islom tarixida fiqhiy mazhablarning shakllanishi, mazhabboshi bo‘lgan mujtahid ulamolar faoliyati ochib berilgan. Unda Kufa va Basra (Iroq) ilk huquqiy maktabi negizida asos solingan hanafiy mazhabining shakllanish va rivojlanish omillariga alohida urg‘u berilgan.

Jumladan, hanafiy mazhabi Abu Hanifa va uning shogirdlari – Abu Yusuf, Muhammad ibn Hasan Shayboniy va Zufar tomonidan jadal rivojlantirilgan. Ushbu mazhab Movarounnahrda VIII asr o‘rtalarida kirib kelgan. Hanafiylikning Movarounnahrda kirib kelishi va keng tarqalishi-ning asosiy sabablaridan biri - mazkur mazhab mintaqada islomga yangidan kirib kelayotgan mahalliy aholi manfaatlari himoyachisi sifatida maydonga chiqqanligidir. Shuningdek, mazkur davrda hanafiylik markazi bo‘lgan Balx va Movarounnahr o‘rtasidagi mustahkam aloqalar o‘lkada Abu Hanifa mazhabi muvaffaqiyatini ta‘minlagan.

Abu Hafis Ahmad ibn Hafis Kabir Buxoriy (768-832) birinchi bo‘lib, IX asr boshlarida ushbu mazhab ta’limotining ilk vakili bo‘lib o‘z vataniga qaytib kelgan va Buxoro shahrini hanafiylikning muhim markazlaridan biriga aylantirishga o‘z hissasini qo‘shgan. Shuningdek, uning tarbiyasi ostida bir guruh salohiyatli faqihlarning yetishishi, Qoraxoniylar hukmdorlarining siyosiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi Movarounnahrda faqihlar sonining ko‘payishi va Hanafiy mazhabining rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Jumladan, bu davrda uch yuzga yaqin olim fiqh ilmining ham nazariy, ham amaliy jihatlari bilan shug‘ullanib, yigirmadan ortiq fatvolar majmuasi, uch yuz ellikdan ortiq fiqhiy asarlar yaratgan. XIII asrga kelib, Xuroson shaharlaridan tortib, Movarounnahr va Turkistonning barcha hududlarida aksariyat aholi Hanafiy mazhabida bo‘lgan.

Movarounnahr fiqh maktabining islom tarixida tutgan o‘rnining yana bir xarakterli tomoni – bu yerda shakllangan boy ilmiy meros va amaliy tajribaning boshqa musulmon o‘lkaloriga, jumladan, arab mamlakatlariga ham yetib borishi hamda u mamlakatlarda Hanafiy mazhabining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgani bilan ham ahamiyatli sanaladi.

XIII asrda Movarounnahrda fiqh ilmi rivojida alloma Abu Barakat Nasafiy ham alohida o‘rin egallab, olimning fiqh ilmiga olib kirgan o‘ziga xos uslublari hamda “al-Vofiy” asarining muqaddimasida keltirib o‘tganidek, fiqhiy asarlar: “Jomiayn”, “Ziyadat”, “Muxtasar al-Quduriy” va “Manzumat al-xilafiyat” masalalarini jamlagani bilan belgilanadi. Chunki o‘quvchi Nasafiyning “al-Vofiy” asarini mukammal o‘zlashtirsa, yuqoridagi uch asarni egallaydi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi “*Nasaflik allomalarning fiqhiy ilmlar taraqqiyotiga ta’siri*” deb nomlanib, unda Nasaf tarixi va u yerlik allomalar ilmiy merosning hanafiy fiqhi rivojiga qo‘shgan hissasi ochib berilgan.

VII asr oxiri va IX asr boshlarida Nasaf hamda Keshda yirik hadisshunoslik va fiqhshunoslik markazlari vujudga kelgan. Mazkur maktablarda turli o‘lkalardan kelgan talabalar saboq olar edilar: IX asrda - Muoz ibn Ya‘qub, Sulaymon ibn Dirizdahiy, X asrda - Asab ibn Hamdaviy, XI asrda - Abdulaziz ibn Muhammad Naxshabiy, XII asrda - Abu Bakr Nasafiy, XIII-XIV asrlarda - Aziziddin Nasafiy, Lutfulloh Nasafiy kabi o‘nlab olimlar islom olamida tanilgan. Keyingi asrlarda ham bu ilmiy an’ana muvaffaqiyat bilan davom ettirildi.<sup>7</sup>

VII-XII asrlarda Movarounnahrda 3000 dan ziyod muhaddislar yashagan bo‘lib, ulardan 1000 dan ortig‘i - Samarqandda, 600 dan ortig‘i - Buxoroda va 400 dan ortig‘i - Nasafda, qolgani esa, Movarounnahrning boshqa mintaqalarida faoliyat olib borgan. Nasafdagi hadis ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan olimlar: Abu Zayd Tufayl ibn Zayd Nasafiy (vaf. 892-y.), mufassir va muhaddis, “al-Musnad al-kabir” va “at-Tafsir” asarlari muallifi, qozi Abu Is’hoq Ibrohim ibn Ma’qil Nasafiy (vaf. 906-y.), faqih, muhaddis, lug‘at va tarix ilmlari bilimdoni Abu Abbos Ja’far ibn Muhammad Mustag‘firiylar shular jumlasidan.

---

<sup>7</sup> Махсудов Д. Абул-Баракот ан-Насафийнинг тафсири илмида тутган ўрни. Тар.фан.ном. ... дисс. – Т.: ТИУ, 2007. – Б. 40.

Shuningdek, Abdulkarim Sam'oniyning "al-Ansob" asarida X-XII asrlarda yashab, ijod qilgan 180 ga yaqin nasaflik allomalar zikr etilgan. Nasaf qadimiy shaharlardan biri sifatida doim o'zining boy tarixi va ilmiy muhiti bilan ko'plab tadqiqotchilarni o'ziga jalb etgan. Shahar o'zining: Nasafiy, Pazdaviy, Ofuroni, Kasbaviy, Kosoniy, Keshiy, Butxazoniy, Bayoniy, Tubaniy, Juvikiy, G'uzoriy, Dujakoniy, Zaykuli, Sunajiy, Sharg'iyoniy, G'adoniy, Kojariy kabi ellikka yaqin turli nasabli olimlari bilan nafaqat Movarounnahr, balki butun islom olamida shuhrat qozongan. Jahon tamadduni rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelgan, ammo turli tarixiy omillar sababli birmuncha susaygan qadimiy Nasaf shahri madaniyati XIV asr kelib, navbatdagi taraqqiyot bosqichini boshladi. O'rta va keyingi asrlarda yashab ijod etgan nasaflik olimlar tafsir, hadis, kalom, fiqh, fatvo va boshqa fanlar bo'yicha boy ilmiy meros qoldirgan.

Nasaf shahri ham Movarounnahrning ilmu ma'rifat markazlaridan bo'lgani bois, "Nasafiy" nisbali olimlar o'z asarlari bilan nafaqat ona yurtlarida, balki butun islom olamida shuhrat qozonganlar. Nasaf islomning turli ilmlarini mukammal egallagan ko'plab zabardast olimlarni voyaga yetkazdi. Tarixchi olimlarning ma'lumotiga ko'ra, 2700 yillik tarixga ega Nasaf Xitoy solnomalarida «Nashebo», yunon tarixchilarining ma'lumotlarida «Navkata» deb atalgan. Bundan tashqari turli davrda yashagan arab tarixchilari o'z asarlarida bu shahar haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirganlar<sup>8</sup>.

Jumladan:

Yoqut Hamaviyning (vaf. 1229 y.) "Mo'jam al-buldon" ("Mamlakatlar tarixi");

Sibt ibn Javziyning (vaf. 1256 y.) "Mir'ot az-zamon" ("Zamon ko'zgusi");

Ibn Xallikonning (vaf. 1282 y.) "Vafayot al-a'yon" ("Taniqlilar vafosi");

Alouddin Otamalik ibn Bahouddin Muhammad Juvayniyning (vaf. 1283 y.) "Tarixi jahonkusho";

Ibn Ibriyning (vaf. 1286 y.) "Tarix muxtasar ad-duval" ("Davlatlarning qisqacha tarixi");

Rashiddin Fayzullohning (vaf. 1320 y.) tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan yaratilgan "Jome' at-tavorix";

Banokatiyning (vaf. 1330 y.) "Ravzat lil-albob fit-tavorix al-akobir val-ansob" ("Ulug' va asl (kishilar) tarixi xususida oqillar bog'i");

Hamidulloh Mustavfiy Qazviniyning (vaf. 1350 y.) "Nuzhat al-qulub" ("Qalblarning uyg'onishi");

Ibn Kasirning (vaf. 1373 y.) "al-Bidoya van-nihoya" ("Boshlanish va tugash");

Mirzo Ulug'bekning (vaf. 1449 y.) "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") kabi asarlarida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "Abu Barakot Nasafiyning fiqh ilmlari rivojiga qo'shgan hissasi" deb nomlangan ikkinchi bobida Abu Barakot Nasafiy hayoti va

---

<sup>8</sup> Maxsudov D. Abu-l-Barakot an-Nasafiyning tafsir ilmida tutgan o'rni. Tar. fan. nom. ... dis. – T.: TIU, 2008.; Nosir M. Nasaf va Kesh allomalari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – B. 6.

tafsir, aqida, fiqh sohalaridagi faoliyati hamda uning hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifagacha bo'lgan shajarasi borasidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Ikkinchi bobning *“Mo'g'ullar hukmronligi davrida Movarounnahrda diniy ilmlar rivojida olimning o'rni”* deb nomlangan birinchi paragrafida Nasafiy yashab o'tgan davrdagi ijtimoiy va siyosiy tanazzul, Movarounnahr ijtimoiy-siyosiy bosqinlar girdobida qolgani, ilmiy-ma'naviy faollik keskin pasayganiga doir voqealar yoritilgan. Jumladan, mo'g'ullarning Movarounnahrda bosqinchilik yurishlari hududdagi taraqqiyotni tubdan izdan chiqargan. Bu inqiroz qariyb yuz ellik yil davom etgan. XIII asrning 60-yillaridan boshlab, Movarounnahrda o'rnatilgan birmuncha ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ko'plab sohalarning qayta tiklanishiga turtki bergan. Ayniqsa, Movarounnahr taxtini boshqargan so'nggi mo'g'ul xonlaridan Kebek va Tarmashirin davrida nisbatan mo'tadil vaziyat kuzatiladi. Kebekxon Nasaf shahrida o'zi uchun saroy qurdirib, uni Qarshi deb nomlagan. Shahar XIV asrgacha Naxshab, Nasaf nomlari bilan atalar edi. Nasafning Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashishi shaharning savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik sohalarida rivojlanib, tez oyoqqa turib olishiga sabab bo'lgan.

Alloma Abu Barakot Nasafiy mana shunday davrda ilmiy faoliyat olib borgan. Nasafiy ismi zikr qilinganda, unga “Abu Barakot”, “Hofiziddin” degan nom ham qo'shib aytiladi. Albatta, bu so'zlarning o'z ma'nosi bo'lib, bu ham olimning yuqori ilmga ega ekanligiga dalolat qiladi. “Hofiziddin” nomi “dinni himoya qiluvchi” ma'nosini anglatadi. Mazkur sharafli nomga muyassar bo'lishda uning sof islom dinini himoya qilgani, mo'g'ullar istilosi natijasida zaiflashib qolgan islom ilmlariga hayot bag'ishlagani hamda ilm tarqatishdagi jiddu jahdini, sa'y-harakatlarini zamonasining olimlari e'tirof etib, olimlar tarafidan shu e'tirofga sazovor bo'lgan. Uning asarlarida naqliy dalillar aqliy misollar yordamida boyitilgani, diniy, ijtimoiy, ma'naviy va ilmiy qarashlari hozirgi kunga hamohangligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi *“Abu Barakot Nasafiy faoliyatida fiqh ilmining ahamiyati”* deb nomlanib, unda olimning hanafiy faqihlar silsilasidagi o'rni ochib berilgan. Jumladan, Abu Barakot Nasafiyning hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifagacha bo'lgan shajarasi: Shamsul aimma Kardariy – Hasan ibn Ali Marg'inoniy – Abuaziz ibn Umar ibn Moza – Mahmud ibn Abdulaziz O'zgandiy – Abu Bakr Muhammad Shamsul aimma Saraxsiy – Shamsul aimma Halvoniy – Abu Ali Nasafiy – Abu Bakr Fazl – Abdulloh Subazmuniy – Abu Hafs Sag'ir – uning otasi Abu Hafs Kabir – Imom Muhammad Shayboniy – Abu Hanifa tarzida keltirilgan.

Nasafiyning fiqh sohasidagi iqtidori, salohiyati asarlarida ko'zga tashlanadi. Fiqhiy masalalarni matn va sharh yo'nalishida bayon qilishi olimning mohir faqih sifatida e'tirof etilishiga zamin yaratgan. Abu Barakot Nasafiyning “al-Mustasfo” asari ularning orasida eng mashhuri va mukammalidir. “Al-Mustasfo” asarining muqaddimasida kitobning ustoz Hamididdin Romishiy tavsiyasi bilan yozilgani qayd etilgan. Tarixiy manbalarda, olimning madrasalarda hanafiy fiqhiga oid “al-

Hidoya” va o‘zining “al-Vofiy” kitoblaridan talabalarga ta’lim bergani keltirib o‘tilgan. Shuningdek, Nasafiy islom ilmlaridan aqida va tafsirga doir kitoblar ham yozgan.

Olimning fiqh borasida amalga oshirgan ishlari alohida e’tiborga sazovor. Ilmiy merosi orasida fiqh va fiqhiy asarlarga yozgan sharhlari boshqa ilmiy asarlardan ko‘proqligi olimning fiqh ilmiga bo‘lgan e’tiborini ko‘rsatadi. Nasafiyning hayotini o‘rganish davomida olimning dars berish jarayonlarida ham fiqhiy asarlardan sharhlar keltirganini uchratish mumkin. Olimlar orasida ham u ko‘proq faqih bo‘lib tanilgan. Misol uchun “al-Kanz” kitobi hozirgi kungacha hanafiy fiqhi bo‘yicha yozilgan asarlar ichida eng mo‘tabar kitoblar sarasiga kiradi va talabalar o‘rtasida eng ko‘p qo‘llaniladigan fiqhiy kitob sanaladi. Nasafiy asarlarini chuqur o‘rganish turli qarashlarga sabab bo‘layotgan masalalarga javob topishda yordam beradi.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi “*Nasafiyning fiqhiy asarlaridagi mavzular va uslubiy xususiyatlar tahlili*” deb nomlanib, unda olimning fiqh sohasidagi furu’ al-fiqh va usul al-fiqh yo‘nalishidagi ilmiy merosi tahlil etilgan. Olimning fiqh ilmiga oid “Kanz ad-daqiq” (“Nozik masalalar xazinasi”) asari islom huquqi bo‘yicha “al-Hidoya”dan keyingi o‘ringa qo‘yiladi. Mazkur kitobda hanafiy fiqhiga doir masalalar shofeiyy va molikiy mazhabiga qiyosan yoritilgan bo‘lib, unda, asosan, Abu Hanifa, Abu Yusuf, Imom Muhammad, Imom Zufar, Imom Molik va Imom Shofeiyy kabi mujtahid olimlarning qarashlari keltirilgan. “Kanz ad-daqiq”ning 7 ta qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Ushbu asarga o‘ndan ortiq sharhlar yozilgan bo‘lib, ular orasida Imom Faxriddin Abu Muhammad Zaylaiy (vaf. 743/1342-3 y.)ning “Tabyin al-haqoiq lima fihi ma intaza minad-daqiq” (“ad-Daqqiqdan olingan masalalar haqiqatini yoritish”) nomli sharhi mashhur hisoblanadi.

Nasafiyning “al-Mustasfo” asari Abuqosim Nosiruddin Muhammad ibn Yusuf Samarqandiy (vaf. 1161-y.) qalamiga mansub “al-Fiqh an-nofe” asariga yozilgan sharh hisoblanadi. “Al-Fiqh an-nofe” asari Nosiruddin Samarqandiyning furu’ al-fiqh ilmiga oid asosiy kitobi hamda hanafiy fiqhiga oid mo‘tabar manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi. “Al-Mustasfo” asari, uning muqaddimasida yozilishicha, ustoz Hamididdin Romishiy tavsiyasi bilan 1266-yilda yozilgan. Hofiziddin Nasafiyning: “al-Vofiy”, “Kashf al-asror”, “Sharh al-Muntaxab”, “al-Musaffo” kabi asarlarida mazkur asardan iqtiboslar keltirgan. Kitobda ibodat, muomalot kabi ko‘plab fiqhiy masalalar berilgan. Olim unda har bir masalaning dalillarini keltiravermaydi, balki ularni mujtahidlarning fikrlari orasida berib o‘tadi. U “Tahorat kitobi” bilan boshlanib, “Meros kitobi” bilan yakunlangan.

“Al-Musaffa fi sharhi al-manzumati Nasafiya fil-hilof” (“Qiyosiy huquqshunoslikka oid Nasafiy nazmining sharhidagi aniqliklar”) olimning fiqh ilmiga oid yana bir asari hisoblanadi. Mazkur kitob 670/1272-yilda, Sha’bon oyining 20 sanasi (22-mart)da yozilgan bo‘lib, Umar Nasafiyning “Manzuma”siga sharhdir. Umar Nasafiyning ushbu asari 10 ta bob va 2669 ta baytdan iborat. Manba o‘zida fiqhiy masalalar bo‘yicha mazhab mujtahid olimlarining ixtilofli qarashlarini aks

ettirgan. Uning 2834 (1110/1699-yilda ko‘chirilgan, nasta’liq xatida) va 4669/II (boshi va oxiridagi varaqlar yo‘q) raqamli ikki qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi<sup>9</sup>.

Asarda dalillar va ixtiloflarga to‘xtalmaydi, balki mashhur mujtahidlarning ismlariga belgi qilib, bosh harflari berilgan xolos. Masalan, «ح» – «ho» harfi Abu Hanifa, «س» – «sin» Abu Yusuf, «م» – «mim» Muhammad, «ز» – «zo» Zufar, «ف» – «fo» Shofeiyy, «ك» – «kof» Molik, «و» – «vov» hanafiy mazhabi olimlari rivoyatlari uchun belgi qilib olingan. Unda ibodat (namoz, ro‘za, zakot, haj), muomalot (savdo, ijara, qarz kabi odamlar o‘rtasidagi munosabatlar), hadlar (jazo) kabi turli masalalar bayon etilgan. U fiqhga oid eng mo‘jaz kitoblardan sanaladi. Shu sabab ham unga mutaaxxir olimlar e’timod qiladilar va hanafiy olimlari orasida ko‘p mutolaa qilinadi. Olimlar uni mashhurlikda «Muxtasar al-Quduriy»dan keyingi o‘ringa qo‘yadilar va mo‘tabar kitoblar sirasiga kiritadilar.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“al-Vofiy” asarida hanafiy fiqhi qoidalarining qo‘llanishi**” deb nomlanib, unda Abu Barakot Nasafiyning fiqhiy masalalarni fatvo berilgan matnlar orqali yoritish uslubi hamda nikoh, oilaviy masalalar, ommaviy madaniyat kabi ijtimoiy mavzularni hal etishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *“al-Vofiy” asari mavzularining tahlili va manbada fiqhiy qoidalar qo‘llanishi*” deb nomlanib, unda manbaning tarkibiy tuzilishi va mavzular tasnifi amalga oshirilgan. Nasafiyning asari tarkiban beshta bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda fatvo asoslari va hanafiy faqhidagi istilohlar: “imom”, “sohibayn” va “tarofayn” kabi hanafiy mazhaboshilariga hamda hanafiy fiqhiy kitoblariga ishora qiluvchi istilohlar: “Asl”, “Mutun” va “al-Mabsut” hamda mazhabdagi olimlar so‘zlariga va mazhabda rojih masalarga ishora qiluvchi istilohlar keltirib o‘tilgan. Ikkinchi bo‘limda - uzunlik miqdori, kilo, vazn va pul o‘lchamlari zikr qilingan. Uchinchi bo‘limda hanafiy mazhabida “Hukm at-taklif” – “amallarning zimmadagi ko‘rinishlari (taklifiy hukmlar)”ning qismlari: sahih, fosid, botil, ruxsat va azimat keltirilgan. Shuningdek, azimatning yetti qismi: farz, vojib, sunnat, nafl, muboh, makruh va haromga bo‘linishi ochib berilgan.

Asarning asosiy mavzularining taqsimoti ikki bo‘lim: Abu Barakot Nasafiyning hayoti, faoliyati va shaxsiyati haqida va “al-Vofiy” asari bilan tanishishdan iborat. Nasafiy fiqhiy masalalarni mazhab asoschisi Abu Xanifa (vaf. 767-y.) qarashlari asosida bayon qilib o‘tadi. Mazhab imomlarining ba’zi masalalardagi farqli qarashlari yuzaga kelgan o‘rinlarda ham olim, asosan, Abu Xanifaning so‘ziga tayanadi.

Shular qatorida olimning asarida fiqhiy qoidalarning mazmuni aks etadi. Ular qisqacha quyidagilardan iborat:

*“Laa savaaba illa bin-niyya” – “Savoblar niyatga ko‘radir”*. Bu barcha ibodatlarining avvalidagi niyat va ixlos mavzusini o‘z ichiga oladi. Nasafiy ushbu



qoidaga binoan tahoratning sunnatlari mavzusida niyatni ham keltirib o‘tadi.<sup>10</sup> Shu kabi barcha mavzuda niyat masalasiga to‘xtalib o‘tgan.

“*Al-Umur bi maqosidiha*” – “*Ishlar niyatga ko‘radir*”. Nasafiy “al-Vofiy” asarida ushbu qoidadan kelib chiqqan holda muhim jihatga urg‘u berib, nikoh paytida so‘zlarini ishlatishda ba‘zi bir xarflarda nuqsonga yo‘l qo‘ysa, misol uchun “زواجك” so‘zida “زوزتك” jim tovushi o‘rnida zal tovushini talaffuz qilsa, buni boshqa biron tilga qiyos qilganda ham inson o‘z tilida ba‘zi bir xarflar talaffuzida nuqsoni bo‘lsa bu ko‘zlangan maqsadning amalga oshishiga xalaqit bermasligini asoslab keltiradi. Ya’ni nikohda asosiy maqsad ikki rishtani bog‘lash bo‘lgani sababli nikoh bog‘lanaveradi.<sup>11</sup>

“*Al-Yaqin la yazulu bish-shak*” – “*Aniq narsa shubha bilan yo‘q bo‘lmaydi*”. Ushbu qoidaga to‘g‘ri keluvchi masalalarni tahorat va poklik mavzularida yoritib o‘tadi. Ushbu qoidadan kelib chiqib, Nasafiy musofir odam suvi borligini unutib, tayammum bilan namoz o‘qisa, ushbu namozini qaytadan o‘qimaydi, deb keltiradi. Safarda ko‘p hollarda suv bo‘lmasligi e‘tiboridan o‘zidagi ishonch bilan ado etgan ibodati qabul bo‘ladi.

“*Al-Mashaqqat tajlib at-taysir*” – “*Mashaqqat yengillikni taqozo qiladi*”. Tahorat va safarga chiqish masalalarida ushbu qoida asosida amal qilinadigan mavzular yoritiladi.

